

Zafar Diyor

O'zbek bolalar adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Zafar Diyordir. U 1912 ili Namangan viloyatining Chust tumanida kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. Avval eski aktabda, so'ng Sho'ro davri bolalar uyida ta'lim oldi. o'lg'usi shoir 1927 yilda Narimonov nomli o'zbek Erlar bilim yurtiga o'qishga kirib, ni 1933 yilda a'lo baholarga tugatib, o'sha yerda adabiyot muallimi bo'lib xizmat qildi.

1941 yilda esa Toshkent Davlat pedagogika oliy bilimgohini tugatdi. shoir ijodi garchi erta boshlangan va ko'pgina she'rlari «Lenin uchquni», «Yosh leninchi», «Yosh kuch», «Kolxozchi bolalar» kabi ro'znomalarda chop etilgan bo'lsa ham, uning«Qo'shiqlar» nomli birinchi she'riy to'plami 1933 yilda nashr etiladi. Jurnalistika shoir faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

U avval «Lenin uchquni» (1936-1941) ro'znomasida mas'ul kotib, 1941 yildan umriningg oxirigacha «Qizil O'zbekiston» ro'znomasida bo'lim mudiri bo'lib ishlaydi. Shoirning «Qo'shiqlar» to'plamidan so'ng «Tantana» (1938), «She'rlar» (1939), Bizning qurolimiz», "Bizning oila" (1942), «Sovg'a» (1944) kabi she'riy majmualari bosiladi.

Zafar Diyor Ikkinchiji jahon urushi yillarda (1941-1945) rang-barang janrlarda shamarali ijod qildi. Uning«Ona allasi» (1942) qo'shig'i o'z vaqtida yozilgan qo'shiq edi. Uning«Qurol bering menga ham!» she'ri Hamid Olimjonning «Qo'lingga qurol ol!» she'riga hamohang edi.

Shuningdek, «Orzu», «Temurchilar maktubi», Otam kelar yaqinda», «Tabassum» «To'qqizinchi may» kabi she'rlari yoshlarni qahramonlik, vatanparvarlik va birodarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Zafar Diyor mohir bolalar shoiri bo'lishi bilan birga bolalarning suyukli dramaturgi ham edi.

Uning uch qismdan iborat «Baxtli yoshlik», «Uch og'ayni» p'esalarida bolalar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik ardoqlanadi. U adabiy tanqidiy maqolalar muallifi sifatida Nabi Rahimov», «Abay o'lanlari», «Ashulalar» kabi ko'plab maqolalar chop ettirgan. U tarjimon va nosir ham edi.

Zafar Diyor 1946 yil 14 aprelda bevaqt vafot etdi. Uningvafotidan keyin «Kichkina bog'bon haqida doston» (1947), «Chaman» (1948), «Gunafsha» (1952), «Asarlar» 1954), «Qanotli do'stlar» (1958), «Suv bilan suhbat» kabi to'plam va saylanmalari nashr etildi.